UO‘K: 378.015.31:811.512.133

ONA TILI TA’LIMIDA KOGNITIV FIKRLASHNING AHAMIYATI

Y.T. Umarova

Maqolada ona tili ta’limiga kognitiv-kommunikativ yondashuvning ahamiyati tahlil qilingan. Muammoni ilmiy-nazariy va ilmiy-metodik aspektlarda o‘rganish masalasi ko‘rib chiqilgan. Tilning lingvodidaktik qonuniyatlarini o‘zlashtirish samaradorligini ta’minlash uchun lingvokognitiv yondashuvdan foydalanish talabalarning bilimlarini mustahkamlash va ijodiy qobiliyatini faollashtirishga, ham lingvistik, ham kognitiv mushohada yuritish kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon berishi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *lingvokognitiv yondashuv, kognitiv aspekt, kommunikativ aspekt, ijtimoiy-madaniy belgilar, kognitiv tahlil.*

В статье анализируется значение когнитивно-коммуникативного подхода к обучению родному языку. Рассмотрен вопрос изучения проблемы с научно-теоретического и научно-методического аспектов. Использование лингвокогнитивного подхода с целью обеспечения эффективного освоения лингводидактических законов языка представляет широкие возможности для закрепления знаний и активизации творческих способностей, развития как лингвистической, так и когнитивной компетенции наблюдения у студентов.

Ключевые слова: *лингвокогнитивный подход, когнитивный аспект, коммуникативный аспект, социокультурные знаки, когнитивный анализ.*

O‘zbekiston ta’lim tizimida ona tilini o‘qitish nazariy hamda amaliy masalalari jihatidan o‘z tarixi va boy an’analariga ega. Ayniqsa, keyingi yillarda zamonaviy talablar asosida ona tili o‘qitish metodikasining rivojlanayotganligi til ta’limida kommunikativ yondashuvning metodik yo‘nalish sifatida yangi bosqichga ko‘tarilganidan dalolat beradi.

Bu esa lisoniy shaxsning jamiyatdagi ko‘p qirrali faoliyatida tilning rang-barang funksiyalari hamda insonning kommunikativlilik kompetensiyasiga talab ortganligi bilan izohlanadi. Bir tomondan, tilning muloqotning zaruriy elementi sifatida muhimligi, boshqa tomondan esa, ijtimoiylashuvning faollashishi, shaxslararo muloqot doiralarining turli xil yo‘nalishlarda kengayishi, lisoniy shaxsning faol ijtimoiy jamiyatdagi o‘rni va roli ortganligi kommunikativ kirishuvchanlik zarurati har qachongidan yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Bunday serqirra muloqot muhiti esa lisoniy shaxsning ham ijtimoiy madaniy, ham o‘z sohasining bilimdoni bo‘lishi zarurligi jihatidan raqobatbardosh bo‘lishini taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak filologlarning ilmiy-nazariy bilimlarni puxta egallashi, professional ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishini ta’minlash maqsadida o‘quv-tajriba tizimining ishonchli va puxta konsepsiyasini yaratish professor-o‘qituvchilar oldida turgan eng muhim vazifa hisoblanadi.

Ana shu maqsadlar yo‘lida zamonaviy tilshunoslikda bilimlarni tizimlashtirish va tartibga solish muammosi ustuvor hisoblanadi. Tizimli yondashuv barcha turdagi munosabatlarni o‘z ichiga oladi, bu o‘ziga xos aloqa va munosabatlardagi til elementlarini obyektiv ravishda aniqroq ko‘rish va to‘g‘ri tasvirlash imkonini beradi.

O.A.Gusevaning fikriga ko‘ra, kognitiv yondashuvning afzalligi shundaki, u “tilni inson, uning ongi bilan, u tomonidan amalga oshiriladigan barcha aqliy va kognitiv jarayonlar bilan, ular asosidagi mexanizmlar va tuzilmalar bilan xilma-xil aloqalarida ko‘rish istiqbollarini ochadi” [1. B. 13]. E.S.Kubryakova esa masalaning mohiyatini qisqa va lo‘nda tavsiflaydi: “Tilga kognitiv yondashuv asosida o‘rganilayotgan til hodisalari boshqa kognitiv jarayonlar: *idrok, xotira, tasavvur, his-tuyg‘ular, tafakkur* bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi” [2. B. 9].

Hozirgi kunda fan va ta’lim sohalariga chuqur kirib borayotgan kognitiv tilshunoslik fanlararo samarali metodologik asoslardan biri sifatida ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va izohlashning turli mantiqiy usul va shakllarini qo‘llash imkonini beradigan metodlar to‘plamini o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda kognitiv tilshunoslikni lingvistik tadqiqotlarning eng zamonaviy yo‘nalishlaridan biri deb atash mumkin. V.A.Maslovaning fikricha, “hozirgi bosqichda kognitiv tilshunoslik uchta asosiy muammo bilan shug‘ullanadi:

- lingvistik belgining tabiati;
- uni egallash;
- undan foydalanish usullari” [3. B. 22].

V.A.Maslova hozirgi kunda kognitiv tilshunoslik oldida dunyoni bilish va tushunish jarayonlarida til-

ning rolini aniqlash, konseptual tizimlar va til tizimlari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish, axborot va ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va uzatish jarayonida tilning rolini aniqlash kabi bir qator vazifalar mavjudligini ta’kidlaydi [3. B. 25].

Sh.Safarov bilimning inson tafakkurida namoyon bo‘lishini grammatika va lug‘atning o‘zaro munosabatiga mos keladi deb tavsiflaydi. “Mazkur talqinga binoan nutqiy tuzilmalar tarkibidagi grammatik elementlar lug‘at birliklari vositasida ifodalanayotgan konseptual mazmun (fikr, g‘oya, tushuncha va hokazo) uchun konseptual tayanchdir. Ushbu tayanchsiz nutqiy tuzilma grammatik (grammatika qoidalariga mos kelmaydigan), mazmunsiz tuzilmaga aylanadi. Lug‘at va grammatika tizimlarining munosabati inson tomonidan voqelikning qanday idrok etilishi va idrok obyekti nima bo‘lishidagi farq bilan bog‘liqdir” [4. B. 84]. Boshqacha qilib aytganda, olamning manzarasi borasidagi inson tomonidan o‘rganilgan barcha bilimlar xuddi lug‘atdagi so‘zlar yig‘indisi kabi ongda “taxlanib turadi”. Muayyan fikrni ifodalash yoki aytilgan fikrni idrok etish jarayonida ana shu bilimlar tizimli ravishda harakatlanadi, yana ham aniqrog‘i nutqiy akt orqali reallashadi.

Ma’lumki, an’anaviy metodikada *rivojlantiruvchi, shaxsiy faoliyatga yo‘naltirilgan, ongli – amaliy yondashuv, shaxs imkoniyatlarini faollashtirish* kabi metod va yondashuvlar amalda qo‘llanib kelingan bo‘lsa, bugungi kunda kognitiv-kommunikativ yondashuv ustuvorlashmoqda. Butun dunyoda globallashuv jarayoni kechayotgan bugungi sharoitda ijtimoiy, madaniy, pedagogik-psixologik, siyosiy, iqtisodiy, etnopsixologik omillar ta’lim jarayoniga kuchli ta’sir ko‘rsatayotgan bir sharoitda filolog-talabalarning har tomonlama salohiyatga ega bo‘lishlari masalasi shuni taqozo etmoqda.

Nafaqat tilshunoslik, balki boshqa turli yo‘nalishlardagi talabalarni ham kognitiv tilshunoslik va kognitiv-kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish g‘oyalari I.N.Vereshchagina, A.A.Leontev, I.Yu.Mangus, N.V.Barishnikov, M.L.Vaysburd, I.L.Bim, S.F.Shatilov va boshqalarning ishlarida keltirilgan. Olimlar shaxsning mental xususiyatlari va fikrlash qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lgan kognitiv yondashuvning ahamiyatiga e’tibor qaratib, uning turli qirralari til ta’limini kuchaytirish va darsliklarni puxta shakllantirishga asos bo‘la oladigan lingvistik, pedagogik, pedagogik-psixologik tamoyillar sifatida izohlaydilar.

Kognitiv yondashuv jarayonlari fanlar doirasida taqdim etilayotgan ma’lumot, tasavvur va bilimlarni sifatli idrok etishga yordam beradi hamda talabalarning har tomonlama shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, bilish jarayonini o‘zlashtirishga, turli sathlarga oid til birliklarini semantik tahlil qilishga, fikrlash va mushohada yuritish jarayonlarini rivojlantirishga, bularning natijasida esa kommunikativ fikrlashdagi ijobiy motivatsiyani kuchaytirishga olib keladi. Demak, kognitiv yondashuv inson faoliyatining barcha qirralarini muvofiqlashtiruvchi vosita sanaladigan ona tilini o‘qitish jarayonida muhim metodologik ahamiyatga ega bo‘lib, talabaning faol bilish subyekti sifatidagi zamonaviy talablarga hamda ta’lim nazariyasining umumiy tendensiyasiga mos keladi.

Hozirgacha falsafa, psixologiya, tilshunoslik, shaxs psixologiyasi, xorijiy tillarni o‘qitish nazariyasi va metodikasi sohalarida kognitiv yondashuv asosidagi ishlar mavjud bo‘lib, o‘zbek tilini ona tili sifatida o‘qitishga kognitiv-kommunikativ yondashuv muammosini ilmiy-nazariy va ilmiy-metodik aspektlarda o‘rganish masalasi endigina kun tartibiga qo‘yilmoqda.

Til materialini o‘zlashtirish jarayonida lingvokognitiv yondashuvdan foydalanish talabalarning bilim olish va ijodiy faoliyatini faollashtirishga, ularning ham lingvistik, ham kognitiv (tafakkur va fikrlash) kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon beradi. Bunday yondashuvning maqsad va vazifalari bo‘lajak filolog-mutaxassis sifatida o‘z ona tilida ravon so‘zlasha oladigan, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, ona tilini o‘qitish maqsadlariga mos keladigan olamning lisoniy tasviri haqidagi til konstruksiyalarini o‘zlashtirgan holda kommunikativlik kompetensiyasini puxta egallagan talabalarni tarbiyalash va ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, muayyan bir til grammatikasiga oid til bilimlarini o‘qitishda kommunikativ ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan *qiyoslash, qarama-qarshi qo‘yish, tahlil qilish, turlicha talqinlarni farqlash, sintez qilish, mavhumlashtirish, umumlashtirish va konkretlashtirish* kabi jarayonlarni bajarish talabaning kognitiv (aqliy) qobiliyatini harakatga keltiradi. Natijada kognitiv yondashuv asosida olgan bilimlarini amalda qo‘llay oladigan, til birliklarining funksional jihatlarini ilg‘aydigan va farqlay oladigan, ham aqliy, ham ma’naviy jihatdan rivojlangan shaxsni shakllantirish maqsadi amalga oshiriladi.

Shuningdek, ona tilini o‘qitish usullarini rivojlantirishning hozirgi bosqichi talabaning ustuvor pozitsiyasi bilan ham tavsiflanadi. O‘qitish amaliyotidagi yetakchi tendensiyalardan biri til hodisasining semantik mazmuniga diqqat qaratishdir. Shu munosabat bilan tilning tizimli tuzilishini o‘zlashtirish jarayonida til birliklarining semantik xususiyatlariga e’tibor kuchayadi. Ona tilini o‘qitish muammolarini talaba shaxsini rivojlantirish nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqish mavjud bilimlarni mazmunli yetkazishga qaratiladi.

Filologik ta’lim yo‘nalishlarida ona tilini o‘qitish metodikasini o‘rgatish hamda uning nazariyasi va amaliyoti sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish ko‘-tarilayotgan muammoning zarurati yuzasidan bir qa-tor muhim jihatlarni aniqlash imkonini beradi:

- oliy ta’limning bakalavr yo‘nalishida ona tili-ni o‘qitish metodikasini o‘rgatishning samaradorligi yuqori darajada emasligi, xususan, til sathlariga oid bilimlarni o‘qitishning mavjud metodikasi va zamona-viy sharoitda shakllangan lingvistik ta’limga qo‘yiladi-gan talablar tizimi o‘rtasidagi ziddiyat;

- ona tili ta’limida kognitiv faoliyat mexanizmlarini amalga oshiradigan yaxlit tizim sifatidagi ilmiy asos-langan yondashuvga ehtiyojning kuchayganligi;

- ona tilini o‘qitish metodikasini o‘rganishda kogni-tiv-kommunikativ jarayonlarning hal qiluvchi roli to‘g‘-risidagi ilmiy ma’lumotlar bazasi hamda ilmiy-meto-dik ko‘rsatmalarning yetarli shakllanmaganligi;

- filolog-talabalarning nutqiy-kommunikativ kom-petensiyalarini shakllan-tirishning kognitiv modeliga bo‘lgan obyektiv ehtiyoj bilan uni ona tili ta’limi jara-yoniga joriy etishning ilmiy-nazariy asoslarining ye-tarli darajada rivojlanma-ganligi o‘rtasidagi ziddiyat;

- talabalarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirish-ga yordam beradigan model sharoitida ona tili ta’limi metodikasini takomillashtirish istiqbollari va ta’lim tizimi bosqichlarida mavjud ta’lim sharoitlari o‘rtasi-dagi ziddiyat.

Yuqoridagi sabablar filolog-talabalarga ona tili ta’limi metodikasini o‘rgatishda kognitiv yondashuvni amalga oshirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish hamda amaliy usul va shakllarini izlash zaruriyatini belgilaydi.

Matn ustida ishlash davomida o‘quvchining tasav-vuri til materialini kodlash jarayonlarida faol ishtirok etadi. Sensor va ratsional ma’lumotlarning birligi aso-sida so‘z yoki jumlaning kognitiv tasviri yaratiladi. Til va nutq amaliyoti uning yaratilishiga jiddiy ta’sir qiladi. Jumlalarda ifodalangan ma’no-mazmun lisoniy shaxs ongida kognitiv tasvir shaklida lingvistik va nutqiy faoliyatga hamroh bo‘ladi. Bu jarayonni A.N.Shamov “kristallanish” deb ataydi, ya’ni ongda shakllangan tasvirlarning turli modalliklarga, o‘quvchilarning til va nutq tajribasida “aylanishi” sodir bo‘ladi.

Tasvirning “kristallanishi” ma’lum shartlar bajaril-ganda sodir bo‘ladi:

a) yuqori darajadagi motivatsiya mavjudligi;

b) talabalarda keng til va nutq tajribasining mav-judligi;

v) o‘quvchilarning kombinatsion qobiliyatlari ham-da til hissining mavjudligi;

d) kreativlikning mavjudligi;

e) o‘quvchilarning nutq faoliyatida ijodkorlik ele-mentlarining mavjudligi [5. B. 23].

A.N.Shamovning ta’kidlashicha, kognitiv fikr-lash aqliy faoliyatning ixcham, sig‘imli, qisqartirilgan shakllari va usullarini taklif qiladi. Kognitiv tafakkur-ning moddiy shakllari talabalarga til birliklarini yax-shiroq eslab qolish va ularni uzoq vaqt davomida xotirada saqlash imkonini beradi. Kognitiv fikrlash til birliklarining turli tomonlarini o‘zlashtirish bilan bog‘-liq nutqiy va mental vazifalarning butun majmuasini hal qilishga yordam beradi [5. B. 23].

Ma’lumki, kognitiv-kommunikativ yondashuv ikki komponentdan iborat: kognitiv va kommunikativ. Kommunikativ yondashuv muloqotning to‘rt asosiy elementi – *o‘qish, yozish tinglash, gapirish*ni qam-rab olishga qaratiladi. Kognitiv jihati esa ana shu jarayonlardagi aqliy, ijtimoiy-psixologik, milliy-mada-niy belgilarni tizimlashtirishni maqsad qilib qo‘yadi. Aynan, ana shu jihati inson ongi va tafakkuri bilan bog‘liq jarayonlar, ularning ichki va tashqi omillarini o‘rganishga yordam beradi. Lingvokognitiv metodi-kada talabaning lingvodidaktik materialni tushunishi va talqin qilishida til, tafakkur, idrok, diqqat, xotira va konseptualizatsiya kabi kognitiv funksiyalar o‘rtasi-dagi munosabat o‘rganiladi. Demak, kognitiv yonda-shuvning maqsadi bilimlarni idrok etish, tizimlashti-rish va saqlash masalalarini o‘rganishdir.

Har bir tilda ma’nolarni ifodalashning o‘ziga xos usullari va ular o‘rtasidagi munosabatlar mavjud. Masalan, o‘zbek tilida so‘zlarning birikuvidan qo‘sh-ma so‘zlar ham, so‘z birikmasi ham, ibora ham hosil bo‘lishi mumkin. Ularning har birini semantik jihatdan farqlash va tushunish kontekstga bog‘liq bo‘lib, milliy ong, madaniy muhit, ijtimoiy dunyoqarashni hisobga olishni talab qiladi. Ana shu nuqtada kommunika-tiv va kognitiv yondashuv kesishadi va bir mohiyat uchun xizmat qiladi.

Grammatik qoidalar tildagi ma’noni ifodalash va talqin qilishimizga ta’sir qiladi. Masalan, *shaharga keldim – shahardan keldim* birikmalaridagi *-ga* va *-da* kelishik qo‘shimchalari ifodaning semantikasini shakllantiradi. Shu tariqa, grammatik kategoriyalar va morfologik shakllar ma’noning turli tomonlarini ko‘rsatishga xizmat qiladi. *Bahor – qanday yaxshi* yoki *Bahor, qanday yaxshi* jumlalarida (–), (,) tinish belgilari ifoda mazmunini o‘zgartirgan. Jumlani o‘qish jarayonida inson ongida shu kabi farqli jihatlarni kog-nitiv anglash sodir bo‘ladi.

I.V.Gulkoning tavsifiga ko‘ra, “Kognitiv gramma-tika grammatik tuzilmalar kognitiv jarayonlarni va dunyoni tushunishni qanday aks ettirishini tekshiradi. U grammatikaga ongimizdagi axborotni tartibga so-lish va izohlash vositasi sifatida qaraydi. Gramma-tikadagi har qanday o‘zgarishlar turli semantik yoki pragmatik oqibatlarga, bizning konseptlashtirish va ma’noni ifodalash usullarimizni o‘zgar-tirishga olib

kelishi mumkin” [6. B. 47]. Bu esa tilning funksional holatida grammatik, semantik va kognitiv jarayonlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish va tushunish muhimligini anglatadi.

Bahor o‘z sepini yoyib, tabiat yashil libos kiydi jumlasida ifoda bilan pragmatik mazmun o‘rtasida tafovut bor. Bunda “sep” va “libos” so‘zlari metaforik ma’no ifodalab, ularning asl ma’nosi va kontekstdagi ko‘chma ma’nosi o‘rtasidagi bog‘liqlik kognitiv anglash orqali ayon bo‘ladi.

Sep – etn. Qiz uzatishda unga ota-onasi va qarindosh-urug‘lari tomonidan berib yuboriladigan mol, bisot. *Kelinni kelganda ko‘r, sepini yoyganda ko‘r* [7. B. 480].

Libos – odam kiyadigan kiyim, ust-bosh, ko‘chma ma’noda jonsiz biror narsani o‘ragan, qoplagan narsaga nisbatan qo‘llanadi. *Bahorning sep yoyishi va tabiatning yashil libos kiyishi* o‘zbek til tashuvchilari uchun konnotativ ma’no anglatishi ongda mavjud tushunchalar asosida aktuallashadi. Bunday mazmundagi matnlar tahlili til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni tushunishga va muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan madaniy kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi. Shu tariqa, kognitiv-kommunikativ yondashuv tilning ijtimoiy-madaniy jihatlariga e’tibor qaratadi.

Kommunikativ-kognitiv yondashuvning o‘ziga xosligi shundaki, u til ta’limida lisoniy va kognitiv mezonlarga tayanadi, bu esa filolog-talabalarga til strukturalari va ichki qonuniyatlarini to‘g‘ri o‘zlashtirish bilan birga muloqot qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Tabiiyki, o‘quvchilarni kognitiv fikrlashga o‘rgatish murakkab aqliy jarayon bo‘lib, bosqichma-bosqich shakllantirib borishni taqozo qiladi. Masalan, pedagogika fanlari nomzodi A.A.Sisolyatina lingvokognitiv metodni amalga oshiruvchi dasturni lisoniy shaxs sifatida shakllanishning bosqichlariga mos ravishda uch bosqichda amalga oshirilishini tavsiya etadi:

I bosqich – *adaptiv* – olamning subyektiv manzarasini kengaytirishga, konseptual sohani turli xil obraz-tasavvurlar bilan boyitishga, muayyan mavzuni o‘rganish davomida o‘quvchilarning ichki nutqini rivojlantirishga qaratiladi;

II bosqich – *texnologik* – mustaqil intellektual faoliyat jarayonida zaruriy ma’lumotlarni ajratib olish maqsadida til birliklarni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga asoslanadi;

III bosqich – *ijodiy* – o‘quvchilarning ijodiy, mustaqil faoliyati jarayonida ma’lum bir mavzu doirasidagi materialni muntazam ravishda o‘rganish va takrorlash orqali mustahkamlashga qaratiladi [8. B. 68].

Filolog-talabalar bilan ishlash jarayonida “Ona tili o‘qitish metodikasi” faniga oid mustaqil ta’lim uchun belgilangan mavzular bo‘yicha yuqorida ko‘zda tutilgan bosqichlarni hisobga olgan holda lingvokognitiv yondashuv asosida darslarni tashkillashtirish borasida kreativ o‘oyalar banki shakllantiriladi.

Adabiyotlar:

1. *Гусева О.А*. Когнитивные основы представления семантического компонента «расстояние» в лексическом значении английских существительных и прилагательных: дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2007. – 211 с.

2. *Кубрякова Е.С*. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.

3. *Маслова В.А.* Введение в когнитивную лингвистику. – Москва: Флинта, 2018. – 296 с.

4. *Сафаров Ш*. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.

5. *Шамов А.Н*. Когнитивный подход к обучению лексике: моделирование и реализация: автореф. дисс. докт. пед. наук. – Тамбов, 2005. – 52 с.

6. *Гулько И.В*. Основные положения когнитивно-коммуникативного подхода в обучении иностранному языку // Вестник науки, 2023. Том 4. – №12 (69).– С. 919–926.

7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А.Мадвалиев таҳрири остида. Беш жилдли. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 687 б.

8. *Сысолятина А.А*. Лингвокогнитивный подход к обучению синтаксису сложноподчинённого предложения (5-9 классы общеобразова-тельной школы): автореф.дисс... канд. пед. наук. – Москва, 2012. – С. 26.

9. *Маслова В.А*. Когнитивная лингвистика. – Москва: ТетраСистемс, 2004. – 256 с.

10. *Umarova Y.* O‘quvchilarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish xususida (morfologik birlik va shakllar tahliliga o‘rgatish asosida). // Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific bulletin. Series: Pedagogical Researches. 2021. – № 2(54). – B. 24–33.

THE ROLE OF COGNITIVE THINKING IN MOTHER LANGUAGE EDUCATION

Yayraxon T.Umarova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific bulletin. Series: Pedagogical Research. 2024. 6(82). 37–42.

[1]Andijan State Pedagogical Institute, Andijan, 170100, str. Do'stlik, 4. (Uzbekistan). E-mail: andupi@edu.uz

Key words: *linguacognitive approach, cognitive awareness, cognitive aspect, communicative aspect, sociocultural signs, cognitive analysis.*

The article increases the need for a cognitive-communicative approach in native education, the issue of studying the problem in scientific-theoretical and scientific-methodological aspects is on the agenda. It is said that the use of a linguacognitive approach to ensure the effectiveness of studying the linguodidactic laws of language allows consolidating knowledge and activating the creative abilities of students, developing competencies of both linguistic and cognitive observation.

Uzbekistan has its own history and rich traditions in theoretical and practical issues of teaching the native language in the education system. Especially in recent years, the development of high-quality teaching methods based on modern requirements of the communicative approach in language education, based on new views, indicates that methodological science has risen to a new level. This is explained by the diversity of language functions in the multifaceted activity of a linguistic personality in society and the increased demand for human communicative competence. On the one hand, the importance of language as a necessary element of communication, on the other - the activation of socialization, expansion of interpersonal communication circles in various directions, increasing the role and place of a linguistic personality in an active social society. show that the need for communicative accessibility is higher than ever. Such a lively communicative environment requires a linguistic personality to be competitive both in terms of social and cultural knowledge and in knowledge of their field. From this point of view, the most important task of professors is to create a reliable and thorough concept of the educational system, ensuring that future philologists acquire scientific and theoretical knowledge, professional skills and qualifications.

For these purposes, the problem of systematization and organization of knowledge is a priority in modern linguistics. The systems approach includes all types of relationships, which allows for a more objective and accurate description of linguistic elements in specific communication and relationships.

According to O.A.Guseva, the advantage of the cognitive approach is that it "opens up the prospect of considering language in its diverse relationships with a person, with his consciousness, with all the mental and cognitive processes carried out by him, with the mechanisms and structures underlying them" [1. P. 13]. E.S. Kubryakova briefly describes the essence of the matter: "Language phenomena studied on the basis of the cognitive approach to language are considered in connection with other cognitive processes: perception, memory, imagination, emotions, thinking" [2. P. 9].

Currently, cognitive linguistics, deeply penetrating into the fields of science and education, as one of the effective interdisciplinary methodological foundations, includes a set of methods that allow the use of various logical methods and forms of collecting, processing and interpreting data.

Today, cognitive linguistics can be called one of the most modern areas of linguistic research. According to V.A.Maslov, at the present stage, cognitive linguistics solves three main problems:

- the nature of the linguistic sign;
- owning it;
- ways of using it [3. P. 22].

V.A.Maslova states that cognitive linguistics currently faces a number of tasks, such as determining the role of language in the processes of cognition and understanding the world, studying the relationship between conceptual systems and language systems, determining the role of language in the process of receiving, processing and transmitting information and data [3. P. 25].

Sh.Safarov describes the manifestation of knowledge in human thinking as corresponding to the interaction of grammar and vocabulary. “According to this interpretation, grammatical elements in speech structures are the conceptual support for conceptual content (thoughts, ideas, concepts, etc.), expressed through vocabulary units. This unsupported speech structure becomes a grammatical (non-grammatical) structure without content. The connection between vocabulary and the grammatical system is associated with the difference in how a person perceives reality and what is the object of perception” [4. B. 84]. In other words, all knowledge acquired by a person about the landscape of the Universe “gets stuck” in consciousness, like a set of words in a dictionary. In the process of expressing a certain idea or perceiving the said idea, this knowledge is systematically transferred, or more precisely, realized through a speech act.

References:

1. Guseva, O.A. (2007) Kognitivnye osnovy predstavleniya semanticheskogo komponenta «rasstoyanie» v leksicheskom znachenii anglijskih sushchestvitel’nyh i prilagatel’nyh [O.A. Cognitive basic semantic presentation komponenta “rasstoyanie” v lexicheskom znachenii angliyskikh sushchestvitelnyx i prilagatelnyx]. The Dissertation for the Candidate of Pedagogical Sciences. Moscow.

2. Kubryakova, E.S. (2004) *Yazyk i znanie: Na puti polucheniya znanij o yazyke: Chasti rechi s kognitivnoj tochki zreniya. Rol’ yazyka v poznanii mira* [Language and Knowledge: Towards Gaining Knowledge of Language: Parts of Speech from a Cognitive Point of View. The Role of Language in Understanding the World]. Moscow: Yazyki slavyanskoj kul’tury.

3. Maslova, V.A. (2018) *Vvedenie v kognitivnuyu lingvistiku* [Introduction to Cognitive Linguistics]. Moscow: Flinta.

4. Safarov, Sh. (2006) *Kognitiv tilshunoslik* [Cognitive linguistics]. Jizzah: Sangzor.

5. Shamov, A.N. (2005) Kognitivnyj podhod k obucheniyu leksike: modelirovanie i realizaciya [Cognitive approach to learning vocabulary: modeling and realization]. Abstract of Dissertation for the degree of Doctor of Pedagogical Sciences. Tambov, 2005.

6. Gul’ko, I.V. (2023) Osnovnye polozheniya kognitivno-kommunikativnogo podhoda v obuchenii inostrannomu yazyku [Basic principles of the cognitive-communicative approach in teaching a foreign language]. *Vestnik nauki*. Vol. 4. No 12 (69). Pp. 919-926.

7. Madvaliev, A. (ed.) (2006) *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* [Explanatory dictionary of the Uzbek language]. In 5 volumes. Vol.3. Tashkent: O‘zbekiston milliy ensiklopeiyasi.

8. Sysolyatina, A.A. (2012) Lingvokognitivnyj podhod k obucheniyu sintaksisu slozhnopodchinyonnogo predlozheniya (5-9 klassy obshcheobrazovatel’noj shkoly) [Lingvocognitive approach to teaching the syntax of a complex sentence (grades 5-9 of a comprehensive school)]. Abstract of Dissertation for the Candidate of Pedagogical Sciences. Moscow.

9. Maslova, V.A. (2004) *Kognitivnaya lingvistika* [Cognitive linguistics]. Moscow: TetraSistems.

10. Umarova, Y. (2021) O‘quvchilarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish xususida (morfologik birlik va shakllar tahliliga o‘rgatish asosida) [On the development of pragmatic competence in students (based on training in the analysis of morphological units and forms)]. *Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar - Scientific bulletin. Series: Pedagogical Researches*. No 2(54). Pp. 24-33.

Muallif haqida ma’lumot:

UMAROVA Yayraxon To‘xtanazarovna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Andijon davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti. E-mail: umarovayayrahon @gmail.com